**Emro Science and Education**
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o'rni" mavzus...

*materiallar to'plami*

# XAVFLI SHAROITLARDA HARAKATLANISHDA HAYDOVCHINING XAVFSIZ HARAKATLANISH USULLARI

**Ikromov Boburjon Nazirjon o'g'li, AndMI "Avtomobilsozlik" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi**

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xavfli sharoitlarda harakatlanishda haydovchilarning havfsiz harakatlanish usullari keltirilgan. Ko'rinish cheklangan sharoitlarda ya'ni kunning qorong'u payti, qor, yomg'ir yoqqanda, qalin tuman tushganda avtomobilni boshqarish bir muncha qiyinlashadi. Shunday holatlarda xavfsizlik yuqori ekanligini sezish mumkin.

**Kalit so'zlar:** oqim, zich, tepalik, nishablik, shatakka olish, boshqarish, sharoit, tezlik, murakkab, ravonlik, tuman, qor, yomg'ir, qorong'ulik, avtomobil, haydovchi.

Transport oqimida avtomobilni boshqarish. Yo'llar transport vositalaridan bo'sh bo'lganda haydovchi yo'l sharoiti (kengligi, bo'laklar soni, ravonligi, qoplamaning holati va sifati)ga, ko'rinish sharoiti va qoida talablariga asosan o'rnatilgan cheklovlarga asoslanib tezlikni o'zi belgilaydi. Transport oqimida esa transport vositalari birin-ketin tizilganligi sababli, harakatlanish sharoiti ancha murakkab bo'ladi. Haydovchi oldindagi transportga nisbatan oraliq masofani saqlashga majbur bo'lib, bunday holatda qator almashtirish o'ta murakkab va xavfli hisoblanadi. Transport oqimida harakatlanganda haydovchi hech qachon tezlikni o'zi tanlay olmaydi. Boshqa transport vositalari kabi tezlik oqimda harakatlanayotgan barcha avtomobillar uchun deyarli bir xil bo'lib, bu asosan oldinda harakatlanayotgan etakchi avtomobil tezligiga bog'liq bo'ladi. Boshqalardan ilgarilab ketish yoki quvib o'tish ham ancha murakkab va xavfli manyovrlardan hisoblanadi. Zich joylashgan transport oqimida avtomobil boshqarish. Haydovchidan ancha diqqat va e'tiborni talab qiladi. Bunday sharoitda haydovchi tezda ko'nikma hosil qilishi va juda tez charchashi mumkin. [1]

Bulardan tashqari kunning qorong'u paytlarida, sovuq iqlim sharoitlarida ya'ni qor, yomg'ir va qalin tuman tushgan paytlarda haydovchining avtomobil boshqarishi bir muncha qiyinchilik talab etadi. Bunday vaziyatlarda haydovchining manzarani ko'rish qobiliyati pasayadi va unda salbiy emotsiyalar keltirib chiqarishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu holatlarga iloji boricha tez ko'nikma hosil qilish kerak.[2]

Yomg'irli yo'llarda ham oraliq masofani oshirish kerak, chunki oldingi avtomobil loy sachratib oynalarni ifloslantirib, ko'rinishni cheklab qo'yishi mumkin. Oldingi transport vositasi gabariti katta bo'lganda yoki uning tormozlanishi kutilganda (chorrahalar, piyodalar o'tish yoki umum foydalanadigan transport vositalar to'xtash joylari), etarlicha ko'rinmaslik sharoitida, haydovchi charchagan paytlarda ham oraliq masofani oshirish maqsadga muvofiqdir. Odatda, shaharlarda, tig'iz transport oqimida harakatlanganda, xavfsiz oraliq masofani kamaytirish hollari ko'p uchraydi. Bunday



Published: 10.11.2023

**Cite this article:** Ikromov Boburjon Nazirjon o'g'li (2023). Xavfli sharoitlarda harakatlanishda haydovchining xavfsiz harakatlanish usullari. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/521

*© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

sharoitda haydovchi tormozlash uchun doimo shay turishi zarur. To‘xtash yo‘lini kamaytirish maqsadida u tormoz tepkisiga oyog‘ini qo‘yib bosishga shay turishi kerak. Yuqori darajali xavfli joylarni ko‘rinish cheklangan paytlarda turli belgilar orqali aniqlash mumkin. Masalan, chorrahaga yaqinlashayotganlikni boshqa transportlarning harakati, yo‘l belgilari va hokazolar orqali aniqlasa bo‘ladi.[3]

Tumanga qarshi old lampalar shunday loyihalashtirilishi va tuzilishi kerakki, ular normal foydalanish sharoitida va tebranishlarga duchor bo‘lishidan qat’i nazar, ular to‘g‘ri ishlashi va ushbu Qoidalarda belgilangan xususiyatlarni saqlab turishi kafolatlanadi. Linzalarning to‘g‘ri joylashishi aniq belgilanishi kerak, linzalar va reflektor foydalanish paytida aylanish sodir bo‘lmaydigan tarzda o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Ushbu bandning talablariga muvofiqligini tekshirish tashqi tekshirish va zarur bo‘lganda sinov o‘rnatish orqali amalga oshiriladi.


Old tuman chiroqlari ularga tegishli standartlar talablariga javob beradigan tarzda ularni avtomobilda sozlash imkonini beruvchi qurilma bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Bunday moslamani reflektor va linzalarni ajratib bo‘lmaydigan faralar to‘plamlari uchun taqdim etish shart emas, agar bunday to‘plamlardan foydalanish oldingi tuman chiroqlari boshqa vositalar bilan sozlangan transport vositalarida cheklangan bo‘lsa. Agar oldingi tuman chiroqlari va boshqa turdagi faralar, har biri alohida filamentli chiroq bilan jihozlangan bo‘lsa, bitta qurilmaga guruhlangan yoki birlashtirilgan bo‘lsa, sozlash moslamasi har bir optik tizimni alohida-alohida sozlash imkonini berishi kerak.[4]

Old tumanga qarshi lampalar cheklangan porlash bilan yoritishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Tuman sharoitida yo‘ldagi qizil rangli narsalardan boshqa barcha rangdagilar o‘zgaradi. Masalan, sariq rang tumanda qizg‘ish, yashil esa sarg‘ishroq tus oladi. Tuman qatlami shunchalik qalin bo‘lishi mumkinki, hatto chiroqlar ulanganda ham 3-5 metrdan nariroqni ko‘rolmaslik mumkin. Tunda va etarlicha ko‘rinmaslik sharoitida haydovchi avtomobilni ko‘p vaqt yuqori darajada diqqat va zo‘riqishli hissiyot bilan boshqargani uchun u kunduzgiga qaraganda ancha tez charchaydi.
Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarda tumanga qarshi faralarning rangi sariq qilib ishlab chiqarilmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki oq rangli tumanga qarshi faralarni qo‘llash ko‘rish masofasini oshiradi.[5]

Damas avtomobiliga o‘rnatilgan tumanga qarshi faraning ko‘rinishni ta’minlash masofasi kunduzi 5-7 metrni kechasi 4-5 metrni tashkil qildi. Diodli lampa o‘rnatilgan farada esa bu masofa kunduzi 8-10 metrni kechasi 6-8 metrga o‘zgardi. Lekin, qarama-qarshi tomondan kelayotgan avtomobil haydovchisi uchun noqulaylik tug‘diradi.
Bu muammoni hal qilish uchun tumanga qarshi faraning nur qaytargichiga o‘zgartirish kiritildi.

Diodli lampalarning yuqoriga yo‘nalgan nurlarini tartibga solish uchun nur yo‘naltirgich o‘rnatildi, bu esa ro‘paradan kelayotgan avtomobil haydovchisi uchun ko‘z qamashishini oldini oladi.




Tumanga qarshi faralarda diodli lampalardan foydalanish
1-diodli lampa 2-nur yo‘naltirgich 3-nur qaytargich

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D Abdurazakova, S Utkirov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Science and innovation in the education system 2 (4), 8-10
2. Q.X.Azizov “Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2019
3. Ikromov B. Ensuring the Safety of Wheeled Transport Vehicles When Driving in Fog Conditions //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 18. – C. 223-228
4. O‘G‘LI I. B. N. TRANSPORT VOSITALARINING ISHLASH SHART-SHAROITLARI //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
5. O‘G‘LI I. B. N. TUMAN SHAROITIDA HARAKATLANISHDA G‘ILDIRAKLI TRANSPORT VOSITALARINI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH //Scienceweb academic papers collection. – 2022.